

IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2026-yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 34 362 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga kamaygan.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida 4 401 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,7 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo (30,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (22,2 foiz), sanoat (9,3 foiz), yashash va ovqatlanish (7,7 foiz) va qurilish (6,0 foiz) boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-dekabr 2024-yil</i>	<i>yanvar-dekabr 2025-yil</i>
Buxoro viloyati	4 963	4 401
Buxoro sh.	1 010	1 189
Kogon sh.	138	141
<i>tumanlar</i>		
Olot	353	180
Buxoro	395	332
Vobkent	377	229
G'ijduvon	405	375
Kogon	310	245
Qorako'l	343	356
Qorovulbozor	103	93
Peshku	310	212
Romitan	450	435
Jondor	421	287
Shofirkon	348	327

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (1 189 ta), Romitan (435 ta), G'ijduvon (375 ta), Buxoro (332 ta) hamda Shofirkon (327 ta) tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (93 ta) tumanida tashkil etilgan.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida




2025-yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 27,1 foiz, Romitan tumani 9,9 foiz, G'ijduvon tumani 8,5 foiz, Qorako'l tumani 8,1 foiz, Buxoro tumani 7,5 foiz, Shofirkon tumani 7,4 foiz, Jondor tumani 6,5 foiz, Kogon tumani 5,6 foiz, eng past ko'rsatkich esa Qorovulbozor tumanida 2,1 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda


	<i>yanvar-dekabr 2024-yil</i>	<i>yanvar- dekabr 2025-yil</i>
Jami	4 963	4 401
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 164	976
Sanoat	789	411
Qurilish	273	263
Savdo	1 298	1 361
Tashish va saqlash	452	365
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	392	340
Axborot va aloqa	95	77
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	101	103
Boshqa turdagi xizmatlar	399	505

**Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2026-yil 1-yanvar holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 26,2 birlikda, Kogon tumanida 15,8 birlikda, Romitan tumanida 14,9 birlikda, Kogon shahrida 13,1 birlikda, Buxoro shahrida 22,3 birlikda va Buxoro tumanida 10,3 birlikda Peshku tumanida 9,8 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10,9 – 8,0 birlik oralig'ida Jondor, Vobkent, Olot va Shofirkon tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 6,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2026-yil 1-yanvar holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida bu ko'rsatkich 11,8 birlikka etdi va 2024-yilning shu davriga nisbatan 0,9 birlik yuqori.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda;)



2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 22 952,1 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 42,9 foizni) yoki 2024-yil yanvar-dekabrga nisbatan fizik hajm indeksi 117,5 foizni tashkil qildi;

- 44 451,2 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarining ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, oʻsish surʻati 100,3 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 92,0 foizi) tashkil qildi;

- 24 407,7 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 56,9 foizi) oʻzlashtirildi va 2024 yil yanvar-dekabrga nisbatan oʻsish surʻati 83,9 foizini tashkil qildi;

- 16 101,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,0 foizi) bajarildi va 2024 yil yanvar-dekabrga nisbatan oʻsish surʻati 111,7 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 107,0 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,9 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 101,2 foizni (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 98,9 foizi) tashkil qildi;

- 30 280,3 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmining 71,0 foizi) 2024 yil yanvar-dekabrga nisbatan oʻsish surʻati 116,8 foizini tashkil qildi;


- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,7 foizi yoki 23 935,8 mlrd. soʻmi (oʻsish surʻati 110,9 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 215,5 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 52,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 26,7 mln.AQSH dollarga yoki 11,0 foizga kamaydi, mos ravishda 673,0 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 52,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 208,6 mln.AQSH dollariga kamaydi.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>(+-)</i>
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	<i>birlik</i>	22 615	24 948	2 333
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	<i>birlik</i>	4 963	4 401	-562
YAHM	<i>foiz</i>	72,4	71,0	-1,4
Sanoat	<i>foiz</i>	41,0	42,9	1,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<i>foiz</i>	96,5	92,0	-4,5
Investitsiya	<i>foiz</i>	54,8	56,9	2,1
Qurilish	<i>foiz</i>	83,7	84,0	0,3
Savdo	<i>foiz</i>	91,3	92,7	1,4
Xizmatlar	<i>foiz</i>	69,3	71,0	1,7
Yuk tashish	<i>foiz</i>	93,1	93,4	0,3
Yuk aylanmasi	<i>foiz</i>	79,5	82,9	3,4
Yo'lovchi tashish	<i>foiz</i>	99,6	99,7	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	<i>foiz</i>	99,0	98,9	-0,1
Eksport	<i>foiz</i>	58,6	52,1	-6,5
Import	<i>foiz</i>	60,8	52,9	-7,9

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi, foizda**



**2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiyl tadbirkorlikning
(fuqarolar mulki) ulushi**


	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiyl sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	44 451,2	100,0
Sanoat	22 952,1	99,3
Qurilish	16 101,8	48,3
Chakana savdo	23 935,8	92,7

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (3 000,9 mlrd.so'm), Kogon tumani (1 871,0 mlrd.so'm), G'ijduvon tumani (1 774,8 mlrd.so'm), va Jondor tumani (1 530,8 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanlarida (724,3 mlrd.so'm) va Olot (647,8 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Shofirkon (90,8 foiz), Jondor (89,7 foiz), Vobkent (79,2 foiz), Kogon shahri (76,8 foiz), Kogon (74,2 foiz) va Qorako‘l (73,5 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga Romitan (53,5 foiz) va Qorovulbozor (3,2 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

2025-yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, foizda




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (5 596,4 mlrd.so'm), G'ijduvon (5 090,3 mlrd.so'm), Buxoro (4 668,8 mlrd.so'm), Romitan (4 490,5 mlrd.so'm) va Peshku (4 303,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (285,3 mlrd.so'm) va Buxoro (698,0 mlrd.so'm) shaharlari, Qorovulbozor tumani (915,4 mlrd.so'm) da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (6 502,3 mlrd.so'm), G'ijduvon (4 494,7 mlrd.so'm), Qorako'l (1 712,8 mlrd.so'm) va Buxoro (1 690,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumani (475,1 mlrd.so'm), Olot (594,2 mlrd.so'm), Peshku (600,3 mlrd.so'm), va Vobkent (832,2 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2025 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da
chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar tahlil qilinganda xizmatlarning eng yuqori ulushi Buxoro shahriga (6 110,9 mlrd.so‘m), undan keyin G‘ijduvon (3 000,7 mlrd.so‘m), Jondor (1 268,2 mlrd.so‘m) va Buxoro (1 234,9 mlrd.so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Kogon shahri (824,5 mlrd.so‘m), Olot (803,0 mlrd.so‘m), Kogon (770,5 mlrd.so‘m) va Qorovulbozor (301,7 mlrd.so‘m) tumanlarida xizmatlarning ulushi nisbatan past bo‘lib qolmoqda.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o‘shish sur‘ati




2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Buxoro viloyati	42,9	92,0	56,9	84,0	92,7	71,0
Buxoro sh.	59,5	96,2	43,6	75,1	88,1	48,7
Kogon sh. tumanlar	76,8	95,2	87,5	82,1	98,6	76,9
Olot	58,3	95,2	93,5	91,7	98,4	82,5
Buxoro	56,0	94,4	50,4	95,6	99,6	83,1
Vobkent	79,2	90,5	81,1	91,8	99,2	58,3
G'ijduvon	55,8	94,7	94,2	90,7	97,9	85,2
Kogon	74,2	92,1	78,8	95,9	72,0	85,7
Qorako'l	73,5	93,9	31,2	71,6	99,2	79,1
Qorovulbozor	3,2	63,7	12,4	25,8	99,8	54,0
Peshku	66,9	94,1	93,3	96,5	69,4	74,3
Romitan	53,5	90,3	24,9	68,8	99,6	72,7
Jondor	89,7	91,5	86,2	88,1	99,4	81,5
Shofirkon	90,8	91,8	91,3	93,1	99,2	79,9

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni G'ijduvon (94,2 foiz), Olot (93,5 foiz), Peshku (93,3 foiz), Shofirkon (91,3 foiz) va Kogon shahri (87,5 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Peshku (96,5 foiz), Kogon (95,9 foiz), Buxoro (95,6 foiz), Shofirkon (93,1 foiz), Vobkent (91,8 foiz) va Olot tumanlari (91,7 foiz) tashkil etadi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2025-yil IV-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1 114 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 29,7 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 66,0 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 31,6 foiz va 64,1 foiz, xizmatlar sohasida 37,1 foiz va 58,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 25,3 foiz va 71,1 foiz, sanoatda 28,1 foiz va 67,3 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 4,6 foiz, qurilishda 4,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3,6 foiz, xizmatlarda 4,1 foiz va savdoda 4,3 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash
2025-yil IV -chorak uchun, foizda**



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yaxshilanish 37,3 foiz, o‘zgarishsiz 60,2 foiz, yomonlashish 2,5 foiz, sanoat korxonalarida yaxshilanishi 51,6 foiz, o‘zgarishsiz 47,1 foizi, yomonlashish 1,3 foiz, savdo yaxshilanish 40,0 foiz, o‘zgarishsiz 57,3 foiz, yomonlashish 2,7 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 46,1 foiz, o‘zgarishsiz 51,5 foiz, yomonlashish 2,4 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 33,0 foiz o‘zgarishsiz 67,0 foizi kuzatildi, yomonlashish kuzatilmadi.

Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari (tadbirkorlik sub`ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub`ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonaning faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

Chakana savdo – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Tovarlarni realizatsiya qilish – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Reklama – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

Tavakkalchilik – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

Bozor – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.